 <https://doi.org/10.30563/turklad.1383981>

İntihal / Plagiarism

This article was checked by



programında bu makale taranmıştır

Makale Bilgisi / Article information

Makale Türü / Article types	: Araştırma Makalesi / Research article
Geliş Tarihi / Received date	: 31.10.2023
Kabul Tarihi / Accepted date	: 06.12.2023
Yayın Tarihi / Date published	: 20.12.2023

Atıf / Citation

Juraboev, O. (2023). Bobur Devoni Qo'lyozmalari va Uning Tuzilishi Xususida. *Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD)*. 7. Cilt, 2. Sayı, 287-295.

BOBUR DEVONI QO'LYOZMALARI VA UNING TUZILISHI XUSUSIDA

On the manuscripts of the babur's divan and its formation

OTABEK R. JURABOEV¹

Annotatsiya

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur devoni qo'lyozmalarining qisqacha tavsifi, uning dunyo kutubxonalaridagi mavqei haqida bayon qilingan. Devon nusxalarining adabiy manba sifatidagi o'rni, ularning matn xususiyatlari va matniy farqlarini izohlashga harakat qilindi. Shoir she'rlari o'rin olgan nusxalardagi farqlar aniqlandi va bu boradagi boshqa olimlarning fikrlari ham o'rganildi.

Bobur devoni qo'lyozmalari o'rtasida taqqoslash tadqiqi ilgari o'tkazilmagan. Ushbu tadqiqotda devonning manba sifatidagi qiymati va matn xususiyatlari taqqoslandi, farqlar aniqlandi. Muallif tomonidan devonni shakllantirish bo'yicha bildirilgan ba'zi nazariy qarashlar ham tahlil qilingan va o'rganilgan.

Ushbu tadqiqotda Bobur devoni ilmiy-tanqidiy matn emas, balki yig'ma-qiyosiy matn bo'la olishi haqidagi xulosa tavsiya etiladi. Bir necha misollar asosida va devon matnlari o'rtasidagi matn farqlarining sabablari ta'kidlangan. Bundan tashqari, Bobur devoni bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar eslab o'tilgan va ularga munosabat bildirilgan.


Kalit so'zlar: Bobur, Qo'lyozma, Devon, Yig'ma-Qiyosiy Matn, She'r.

Abstract

In this article, a brief description of the manuscripts of Zahiriddin Muhammad Babur's Divan and its status in libraries around the world was written. Literary values, textual features and differences of Divan copies were tried to be explained. Copy differences in the poems of the poet were identified and the opinions on this issue were also examined.

¹ Doç. Dr., Özbekistan İlimler Akademisi Alişir Nevai Devlet Edebiyat Müzesi Müdürü.

El-mek: atabekrj@gmail.com.

 ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0001-9997-1488>

A comparison study between Babur divans has not been done before. In this study, the literary value and textual features of the divan were compared and differences were identified. Some theoretical views on the formation of manuscript copies of the Divan have also been analyzed and examined.

In this study, it was suggested that a comparative summary text, not an edition-critical text, should be compiled in Babür Divan based on examples, and the reasons for the textual differences between the divans were emphasized. In addition, the previous studies on Babur Divan were mentioned and these studies were classified and the determinations made by those who worked on the text were evaluated.

Keywords: Babur, Manuscript, Diwan, Scientific And Critical Texts, Lyric.

Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) Sharq mumtoz turkiy adabiyotining yirik siymolaridan biri. U lirik janrlarda ham barkamol ijod qilgan. Ana shu asarlar majmuasidan iborat she'riy to'plami – **ديوان (divân)** ham bor.

So'nggi tadqiqalarimizga ko'ra, dunyo kitob xazinalarida saqlanuvchi, Bobur devonining qo'lyozma nusxalari adadi o'nta ekanligi ma'lum (Bobur Ensiklopediyasi, 2017:114-116).

Bu qo'lyozmalar:

1. رساله ترکی منظوم نوشته دستی تصنیف بابر پادشاه قلمی.

(Risâlai turki manzum, navishta dasti tasnifi Bâbur pâdshâh, qalami)

Hindiston, Rampur shahridagi Rizo kutubxonasi, 19 raqamli qo'lyozma [India, Rampur Raza Library, №19]. Ushbu qo'lyozma faksimilesini dastlab ingliz sharqshunosi Denison Ross (Dennison, 1910), keyinchalik O'zbekistonda akademik S.Azimjonova (Azimjonova, 1966) va Hindistonda prof. Aziziddin Husayn (Husayn, 2014) e'lon qilgan.

Shoir ijodiy merosini o'rganishda muhim bo'lgan bu qo'lyozma chiroyli ta'liq xati bilan ko'chirilgan. Sahifalarga jadval ishlangan, unvonli va bezakli, oltin suvi yuritilgan. 22 varaq. Ammo, mumtoz devon shaklida emas. Unda "Risolai Volidiya", 2 masnaviy, 24 ruboiy, 2 g'azal, 3 qit'a va "Risolai aruz" dan kichik parcha o'rin olgan. Dastlabki sahifadagi (Bayramxon) va oxirgi varaq pastki qismida (Shoh Jahonning ta'kidiga binoan) Bobur dastxati borligi aniqlangan.

"Har vaqtiki, ko'rgasen mening so'zumni,

So'zumni o'qub sog'ing'aysen o'zumni..."

deya boshlanuvchi ruboiy Boburning o'z xatida bitilgan. Shu she'ri yozib, muallif qo'lyozmani katta o'g'li Muhammad Humoyun mirzoga jo'natgan. Bunga oid dalil "Boburnoma"ning 357^b sahifasida ham keladi (Babur, 2002:248). Keyinchalik Bayramxon va Shoh Jahon ham buni tasdiqlaydi (Husayn, 2014:43-44).

Manba hijriy 935 [milodiy 1528], ya'ni "Volidiya" risolasi erkin tarjima qilingan yil ko'chirilgan. Uning ayrim sahifalari hoshiyasida Boburning tuzatma-tahrirlari ham bor.

2. ديوان ترکی بابر پادشاه (Divâni turki Bâbur pâdshah)

Parij, Milliy kutubxona, 1230 raqamli qo'lyozma [Paris, Bibliotheque Nationale, Suppl. Turc. 1230]. Qo'lyozma matni chiroyli nasta'liqda yozilib, har sahifaga ikki ustun holda joylashtirilgan. Dastlabki sahifa unvonli. Go'zal ornament va jadvallar ishlangan. 51 varaq. Kotibi: al-Abd Muhammad Boqiy. Ko'chirilgan joyi va sanasi ko'rsatilmagan. Biroq, prof. S.Hasanov uni XVI asrning ikkinchi yarmiga mansubligini ta'kidlaydi (Hasanov, 1993:3).

Bu nusxada 89 ta tugal, 1 ta noto'liq g'azal, 63 ruboiy, 1 masnaviy, 11 tuyuq, 1 qit'a, 29 muammo, 21 fard mavjud. She'rlar an'anaviy devon tuzilish tartibida emas, janrlar aralashib ketgan. Bu esa mazkur nusxa muallif qoralamasidan ko'chirilganiga ishora qiladi.

3. ديوان بابرشاه چغتاي (Divâni Bâburshah chig'atayi)

Istanbul Universiteti kutubxonasi, 3743 raqamli qo'lyozma [Istanbul Üniversitesi kütüphanesi No:3743]. Qo'lyozma matni o'rtacha nasta'liq bilan har sahifaga ikki ustun qilib yozilgan. Oddiy uslubda ko'chirilgan va ba'zi o'rinlari o'chirilgan qoralama nusxa (Yucel, 1995:20). 105 varaq. Ko'chirilgan joyi, vaqti va kotibi ko'rsatilmagan. Bu qo'lyozma ham devon tartibida emas, janrlar aralash berilgan. Ammo, nusxa Bobur she'r to'plamlarining eng to'lig'i hisoblanadi. Unda "Risolai Volidiya", 121 g'azal, 8 masnaviy, 211 ruboiy, 53 muammo, 18 qit'a, 15 tuyuq, 79 matla' va masnu' she'rlar o'rin olgan, nasriy parchalar ham mavjud.

4. ديوان سلطاناعظم بابر ميرزا (Divâni Sultânul a'zam Bâbur mirzâ)

Istanbul, To'pqopi saroyi Ravon kutubxonasi, 2314 raqamli qo'lyozma [Topkapı Sarayı Revan kütüphanesi no: 2314]. Qo'lyozma nasta'liq xatida har sahifaga ikki ustun holda ko'chirilgan. Sahifalarga bezakli, ziynatli jadvallar ishlangan, oltin suvi va rang yurgizilgan. 54 varaq. Ko'chirilgan sanasi va kotibi ma'lum emas. (Ba'zi belgilariga ko'ra buni ham XVI asr ikkinchi yarmiga mansub, deya taxmin qilish mumkin.) Unda ham devon tartibi saqlanmagan bo'lib, 113 g'azal, 12 masnaviy, 139 ruboiy, 57 muammo, 14 qit'a, 13 tuyuq va bir necha notamom she'r bor.

5. ديوان ميرزا بابر (Divâni mirzâ Bâbur)

Istanbul shahar kutubxonasi, Muallim Javdat yozmalari bo'limi, 332 raqamli qo'lyozma [Istanbul 100. Yıl Atatürk Kitaplığı (Belediye Ktb.) Muallim Cevdet yazmaları K. 332]. Qo'lyozma matni ta'liq xatida sarg'ish qog'ozga yozilgan. Sahifalarga zarhal va rangli jadval ishlangan. 74 varaq. Ko'chirilgan sanasi va kotibi ko'rsatilmagan. Bu manba ham devon tartibida emas. Unda 84 tugal va 8 notugal g'azal, 12 masnaviy, 136 ruboiy, 57 muammo, 15 qit'a, 13 tuyuq hamda bir necha notamom she'rlar berilgan.

6. ديوان بابر پادشاه (Divâni Bâbur pâdshah)

Hindiston, Haydarobod Salorjang muzeyi, 4 raqamli qo'lyozma [India, Salar Jung State Library No: 4]. Qo'lyozma matni ravon va mayda nasta'liq xati bilan har sahifaga ikki ustun holda ko'chirilgan. Varaqalar bezalmagan, oddiy. 25 varaq. Kotibi noma'lum. XVII asrda ko'chirilgan. Bu qo'lyozma ham an'anaviy devon tartibida emas. Unda 90 g'azal, 31 ruboiy, 2 tuyuq va 3 fard o'rin olgan. Ayrim she'riy satrlar ostiga forsiy mazmuni bitilgan.

7. ديوان بابر پادشاه (Divâni Bâbur pâdshah)

Hindiston, Haydarobod Salorjang muzeyi, 18 raqamli qo'lyozma [India, Salar Jung State Library No: 18]. Qo'lyozma matni ravon nasta'liq xati bilan har sahifaga ikki ustun holda ko'chirilgan, har bir she'r "va lahu" (bu ham uning) so'zlari bilan ajratilgan. 28 varaq. Kotibi: Janob Ali Kotibiy. Hijriy 1188 (milodiy 1774) yilda ko'chirilgan. Bu qo'lyozma ham mumtoz devon tartibida emas. Unda 89 g'azal, 65 ruboiy, 11 tuyuq, 1 qit'a, 49 fard va 10 masnaviy o'rin olgan. 1^b varaqdagi "Min maqoloti hazrat al-a'lo" yozuvidan so'ng g'azallar boshlangan va ko'pchilik misra osti yoki yoniga forsha mazmun boshqa kotib tomonidan yozilgan. Devondan so'ng qo'lyozmada Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul-lug'atayn" asari ham o'rin olgan (Hasanov, 1979:49-51).

8. ديوان بابر پادشاه (Divâni Bâbur pâdshah)

London, Britaniya muzeyi kutubxonasi D.P.1402 raqamli qo'lyozma [London, The British Library D.P. 1402, Turki Ms 25]. Qo'lyozma matni chiroyli husnixat bilan nasta'liqda har sahifaga ikki ustun holda qora, (sarlavhalar) qizil siyoh bilan ko'chirilgan. 32 varaq. Qo'lyozma o'lchovi: 11,5x20 sm; matn o'lchovi: 7x14 sm. Ayrim sahifalar hoshiyasiga ham

she'r yozilgan. Manba bezaksiz. Kotibi: Hayot Ali. Xotima qismida boburiylardan bo'lmish Ajit Singh Jayb Bahodur buyrug'i bilan hijriy 1190 (milodiy 1776) yil ko'chirilgani ta'kidlanadi. Qo'lyozmada yana ikki temuriy – Sulton Husayn mirzo va Sulton Mas'ud Mirzo Shohiy devonlarini ham Hayot Ali ko'chirgan va bir jildga keltirilgan (Abdug'afurov, 1997: 14-20). Manbaning ahamiyatli jihati shundaki, unda ilk bora Bobur she'rlari an'anaviy mumtoz devon tartibida berishga harakat qilingan: har radif harfiga sarlavhalar (masnaviyot, ruboiyot, fardiyot-mufradot, qit'aot) qo'yilgan. Taxminimizcha, bu kotib tomonidan amalga oshirilgan. Unda 88 g'azal, 4 masnaviy, 1 masnu', 76 ruboiy, 2 qit'a va 29 fard berilgan. "Fardiyot" qismida muammolar ham aralashib ketgan.

9. بابردیوانی (Bâbur divâni)

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi, 317 raqamli qo'lyozma. Matn novvotrang Qo'qon va hafrang rus fabrika qog'oziga har sahifaga ikki ustun holida ko'chirilgan. Ravon nasta'liq xatida qora siyoh bilan ko'chirilgan. Sahifalarga zarhal, rangli va oddiy jadvallar ishlangan. Kotibi: To'xtamurod usta Usmon o'g'li Zufariy Shohiy. 1996 yil Toshkent shahrida ko'chirilgan. 96 varaq. Qo'lyozma o'lchovi: 12x20 sm. Matn o'lchovi: 7,5x14; 6x13; 9x15 sm. Qizil rang, uch unvonli bezakli qattiq muqovada. [Sahhof nomi unvonga yozilgan: amali Mir Muhammad, sana 1274.] Unda 121 g'azal, 196 ruboiy, 9 masnaviy, 52 muammo, 19 qit'a va 1 fard berilgan.

10. Yana bir **divân** qo'lyozmasi haqida turkmanistonlik olim R.Kurenov o'z tadqiqotida xabar beradi (Kurenov, 2016). Unga ko'ra, Pokistondagi Islomobod Milliy kutubxonasida 3 raqamli qo'lyozma Bobur devonidir. Biz o'zimiz hali bu nusxani ko'rmaganimiz bois R.Kurenov ma'lumotiga tayanamiz. Devonning bu nusxasi matniy nuqtai nazardan Parij qo'lyozmasiga yaqin ekanligi seziladi. Garchand ushbu dissertatsiya ishidan Bobur devonining tekstologik tadqiqi ko'zda tutilgan bo'lsa ham unda mavzu yuzasidan amalga oshirilgan bir qancha ishlardan bexabarlik va ko'plab muhim materiallarni o'rganilmagani uchun to'laqonli ish yuzaga chiqmaganini ta'kidlash lozim.

Yuqorida zikri kechgan qo'lyozmalarni o'rganish davomida esa shunday xulosalarga kelish mumkin:

A) ular asosan XVI-XVIII asrlar oralig'ida ko'chirilgan qo'lyozmalardir (Toshkent nusxasi bundan xorij);

B) ularning hech biri tom ma'nodagi an'anaviy Sharq mumtoz **divân** tuzilishi shaklida emas;

D) ular birinchi galda – shoir she'rlarining mavjud yig'ilgan jamlanmasi yoki qoralama (musavvada)lar ekanligi bo'rtib turadi;

E) ularning ichida ayrim ziynatli nusxalar ham bo'lib, aynan, shu bezakli qo'lyozmalar manbashunoslik va matnshunoslik nuqtai nazaridan hamda boburshunoslik uchun mo'tabar hisoblanadi;

F) bu qo'lyozmalarning deyarli barchasi ravon va chiroyli husnixat bilan kitobat etilgan (asosan nasta'liq xatida).

Modomiki, masala shunday ekan "Bobur o'z qo'li bilan divân (devon) tuzganmide?" degan savol yuzaga qalqib chiqishi tabiiydir (Juraboev, 2018:41-43).

Sohibi devon bo'lish mumtoz adabiyotda shoirdan tom ma'noda mumtoz she'riyat egasi bo'lishni taqozo etadigan unsur ekanligi ma'lum. Bu esa shoirdan katta mas'uliyat va iste'dod talab etadi. **Divân** tuzish ham ko'p asrlik an'analarga egaki, ana shularni o'zlashtirgan shoirgina bu ishga qo'l ura olardi.

Biz Zahiriddin Muhammad Boburning bu masalaga qarashini o'rganmay turib, uning devoni qo'lyozmalaridagina kelib chiqib yuqoridagi savolga javob qilib qo'yaqolishni u qadar to'g'ri emas, deb hisoblaymiz (Juraboev, 2020:1493-1498).

Shuning uchun, Boburning **divân** tuzib-tuzmaganligi haqida muallifning nazariy qarashlarini ham o'rganib yanada asosliroq ilmiy xulosa chiqarish maqbul bo'ladi (Juraboev, 2023:171-176).

Aytish mumkinki, Bobur **divân** tuzish borasida o'z yondashuviga ega.

Biroq, uning she'r tuzilishi, jumladan aruz haqida maxsus ilmiy asari (Babur, 1971) va unda aruz ilmiga oid nazariy qarashlari bo'lgani holda **divân** tuzilishi borasidagi ilmiy fikrlari aks etgan to'la yozmalari bizga ma'lum emas. Lekin, uning bitiklari orasida bu masalaga bag'ishlangan ayrim o'rinlar borki, ular orqali muallifning bu borada ham mukammal bilimga ega ekanligiga shohid bo'lamiz.

Bir ruboiysida u shunday deydi:

Devonima ne rabtu ne tartibedur,

Ne jadvalu ne lavhu ne tazhibedur.

Gar sanga yibordim ani, ayb aylamakim,

Devoningni tilarga taqribedur.

“Boburnoma”ning bir o'rnida Samarqand hokimi “*Fo'lod Sultonga devonimni yibordim*” deb yozadi (Babur, 2002:174). Bu voqea Bobur hali Kobulda ekanligida, aniqrog'i, milodiy 1518 yilga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra, shoir o'z devonining dastlabki qoralamalariga shu vaqtda tartib bergan, deyish ham mumkin.

Biroq, keltirilgan ruboiyning o'zi qachon yozilgan? 1518 yildan oldinmi yoki keyinmi? Bobur o'z devoni badaliga kimdan yana devon “tilamoqda”? Nega devonining kamchiliklarini sanayapti va ular qanday “ayb”?

Haqiqatan, bir to'rtlik shuncha savol tug'diradimi?!

To'g'ri, ularning hammasiga ham javob topish hozirda juda mushkul. Ayniqsa, kimga yo'llangani borasidagi so'roq, toki biror ishonchli manba asosida aniqlik kiritilmas ekan, ochiq qolaveradi.

Biroq, diqqat etilsa, avvalo, Bobur o'z she'riy to'plamini an'anaviy mumtoz devonchilik qolipiga batamom solishga ulgurmaganini ta'kidlamogda. Qolaversa, bu ruboiy Fo'lod Sultonga to'plam yuborilgandan so'ng bitilgan. Ya'ni, shoirning dastlabki she'riy to'plami (**divân**) bitgach.

Bunday fikrga kelishimizning esa sababi bor.

Avvalo, ushbu ruboiy matni shoir devoni qo'lyozmalarining uch nusxasidagina keladi. Ular Istanbulda saqlanayotgan qo'lyozmalardir [Istanbul Üniversitesi kütüphanesi No: 3743, Topkapı Sarayı Revan kütüphanesi no: 2314, İstanbul 100. Yıl Atatürk Kitaplığı (Belediye Ktb.) Muallim Cevdet yazmaları K. 332].

Ikkinchidan, bu manbalarning birinchisi – Istanbul Universitetidagi nusxa Bobur devonlarining eng ko'p she'r yig'ilgani hisoblanishini avvalroq ta'kidlab o'tdik. Yuqorida keltirilgan ruboiy esa qo'lyozmaning 67^b-68^a varaqlaridan o'rin olgan. Qolaversa, aynan shu nusxa hozirda Istanbuldagi yana ikki manba uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Masala shundaki, Bobur devonlarining eng mo'tabarlari hisoblanmish Rampur [India, Rampur Library of Risa, №19] va Parij [Paris, Bibliothèque Nationale, Suppl. Turc. 1230] nusxalarida bu ruboiyning yo'qligi ham uning keyinchalik – 1528-1530 yillarga doir ekanligiga dalolat qiladi. Chunki, ta'kidlangan Istanbul universitet nusxasi salmoq jihatidan Bobur she'rlari

jamlanmasining eng yirigidir. Hatto, undagi bir necha she'r boshqa manbalarda uchramaydi. Uning ayrim sahifalardagi kalligrafik belgilarga ko'ra turk olimi B.Yujel muallif avtografi (dastxati) degan taxmini ham ilgari surgan edi (Yucel, 1995:20).

Ammo bunga qo'shilib bo'lmaydi. Negaki, Zahiriddin Muhammad Boburning qo'l yozuvi borligi tasdiqlangan manba Rampurdagi nusxa ekanligi haqida yuqoriroqda ta'kidladik. Istanbul universiteti nusxasining matnini Rampur nusxasidagi Bobur yozuvi bilan qiyoslanganda ham B.Yujel fikri o'z tasdig'ini topmadi. Ustiga-ustak, Istanbul universitetidagi manbaning kitobat qilinishi ham XVI asr ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Ya'ni, muallif vafotidan ancha keyin.

Endi asosiy masalaga qaytsak.

Bobur ta'kidlangan ruboiysida aynan **divân** tuzilishining muhim unsurlari haqida eslatadi. Ya'ni, bu o'rinda muallif tarafidan devonchilikning shakli va nazariy asoslariga xizmat qiluvchi unsurlar, qisqacha bo'lsa-da, ta'kidlanmoqda. Demak, Bobur nazdida, devonning shakli jihatdan to'la-to'kis bo'lmog'i uchun quyidagilar ijob etishi zarur ekan:

1. ربط (Rabt)
2. ترتب (Tartib)
3. جدول (Jadval)
4. لوح (Lavh, lavha)
5. تذهيب (Tazhib)

Bobur ta'kidlangan mazkur besh istiloh devonning tugal bo'lishi va o'quvchi qo'lga yetib borishi uchun, ma'lum ma'noda, muallif tarafidan muhim yoki yetarli hisoblanilmoqda. Ruboiyning keyingi ikki misrasiga qaralsa, "*Gar sanga yibordim ani, ayb aylamakim*" deya agar beshta asosiy unsur – "*rabt*", "*tartib*", "*jadval*", "*lavh*" va "*tazhib*" bo'lmasa ham uning devonini aybsitmaslikni so'ramoqda.

O'z navbatida buning sababi o'laroq "*Devoningni tilarga taqribedur*" deya asos ham keltirilmoqda. Ya'ni, ushbu ruboiyni boshqa bir qalamkash-shoir – devon tuzuvchiga yo'llamoqda va o'zining hali tugallanmagan devonini jo'natib, buning badaliga uning she'riy to'plamini so'rab olish istagidadir.

Anglashiladiki, Bobur devonining daragi va dovrug'i hali muallif uni to'la tartib bermasdan oldinroq mashhur bo'lgan. Uni muallifning o'zidan so'rab olib o'qiguvchi muxlislar, oxirigacha-mukammal tarzda bo'lmasa-da, tezroq bahramand bo'lish niyatida o'zidan iltimos qilib olib turishgan.

Boburning ruboiysidan **divân** tuzilishi bilan bog'liq holda quyidagicha nazariy xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Dastlabki ikki istiloh – "*rabt*" va "*tartib*" devonning matn tuzilish strukturasi bilan bog'liq bo'lsa, "*jadval*", "*lavh*" va "*tazhib*" devonning ko'rinish, ya'ni badiiy kitobat bezagi bilan bog'liq ravishdagi atamalardir.

Demak, **divân** (she'rlar to'plami) matn nuqtai nazaridan qat'iy ichki tartibga (alifbo harflarining ketma-ketligi, qofiya-radiflarning navbati, janrlar oldinma-ketinligi; *debocha*, *hamd*, *munojot* va *na'tlarning* kelishi) ega bo'lmog'i, keyin esa uning qo'lyozmasi ta'kidlangan ichki bezaklarning o'rinli qo'llanib tuzilishiga bog'liq bo'lar ekan. Shuni ham eslatish kerakki, badiiy bezaksiz ham, oddiy ko'chirilgan **divân** nusxalari ko'p uchraydi. Lekin, bu o'rinda Boburning podshohlighi va yuksak didli san'atkor ekanligini ko'zda tutish o'rinli bo'ladi.

Anglashiladiki, Bobur mirzo o'z devonini yuqorida keltirilgan mumtoz devonchilik talablari asosida mukammal sur'atda tartib berishga va bu borada ham o'z xassos ijodkorlik qirralarini ko'rsatishga intilgan shoir o'laroq ko'z oldimizda gavdalanadi. Uning **divân** tuzish

va devonchilik borasidagi qarashlari mumtoz devonchilik an'analari mukammal tarzda biluvchi, tajriba va mahorat sohibi, salohiyatli ijodkor ekanligini yana bir karra tasdiq etadi.

Demak, Bobur hayotlik chog'ida o'z she'riy to'plamini an'anaviy mumtoz devonchilik qolipiga batamom solishga ulgurmagan. Faqat, Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanuvchi "Devoni Bobur podshoh" qo'lyozmasi ma'lum devon holidadir. Biroq, u ham hij. 1190 [m.1776] yilda ko'chirilgan bo'lib, kotib tarafidan shunday tuzilganini eslatdik. Boburshunoslikka ham, mumtoz **divân** tuzish an'anasiga to'liq rioya etib tuzilgan, shoir devonining mukammal nusxasi hanuzgacha ma'lum emas.

Bobur ijodiy merosiga faol qiziqish tufayli, XX asrga kelib, uning lirik asarlarini devon holiga keltirishga ayrim urinishlar bo'lgan. Shu kunga qadar Bobur she'riyatidan namunalar turli tarzda bir necha bor chop etildi. Bu borada F. Ko'prulu (Ko'prulu, 1915), A.Samoylovich (Samoylovich, 1917), A.Qayumov (Qayumov, 1965), S.Hasanov (Hasanov, 1982), Sh.Yorqin (Yorqin, 1983, 2008), A.Abdug'afurov (Abdug'afurov, 1994), B.Yucel (Yucel, 1995) va boshqalarning ishlarini sanash mumkin.

Ko'plab nashrlar asosan ommabop xarakterga ega bo'lib, ularning ichida ikki nashr ilmiyligi bilan ajralib turadi. Afg'onistonlik olim Shafiqa Yorqin va turkiyalik olim Bilol Yucel tarafidan amalga oshirilgan bu tadqiq-nashrlar nisbatan to'la va birmuncha ilmiy apparat bilan ta'min etilgan. Ular, ma'lum qadar, tanqidiy matn xususiyatini tashiydi.

Biroq, ularni ham mukammal ilmiy izohga ega, shoir she'riyatini to'la-to'kis qamrab olgan va sahih matn darajasida deb bo'lmaydi. Negaki:

a) Sh. Yorqin va B.Yujel nashrlarida Bobur devonining Haydarobodagi, Londondagi, Islomobodagi va Toshkentdagi nusxalari tadqiq uchun tortilmagan;

b) Ushbu nashrlar, to'liq ravishda, an'anaviy Sharq mumtoz devonchilik shakliga keltirilmagan;

c) Har ikki nashr matnida (asosan B. Yucel nashri) qo'lyozmalar aro bir-necha farqlar ko'rsatilsa-da, barcha nusxalar isti'foda etilmagani va ilmiy-tanqidiy (yoki, yig'ma-qiyosiy) matn prinsiplaridan kelib chiqilmagani bois to'liq holda emas.

Bobur devonining qo'lyozmalarini o'rganish natijasida shunga amin bo'ldikki, shoir devonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzish juda zarur ekan.

Lekin, masalaning chigal va yechilmas jihati bor.

Ya'ni, Boburning o'zi tuzgan yoki tuzdirgan va tahrirdan o'tkazgan to'liq (yoxud, nisbatan to'liq) devon qo'lyozmasi qo'limizda bo'lmas ekan ilmiy-tanqidiy matnni haqiqatda amalga oshirib bo'lmaydi.

Negaki, muallifning o'zi devonni qay tartibda tuzgan, an'anaviy mumtoz devonchilikning qoidalariga qat'iy amal qilganmi, yo'qmi, degan savollar qalqib chiqaveradi. Ustiga-ustak, ilmiy-tanqidiy matnga asos asl (tayanch nusxa bo'lgulik) qo'lyozmaning o'zi yo'q. Inchunin, ilmiy-tanqidiy matn barcha yoki eng mo'tabar qo'lyozma nusxalar asosida yaratilishi matnshunoslik ilmida qabul qilingan.

Yuqoriroqda qisqacha tavsiflari keltirilgan qo'lyozmalarning bari devon tuzish uchun yig'ilgan she'rlar musavvadasi yoki keyinchalik ulardan ko'chirilgan ayrim-ayrim holdagi nusxalar, ekanligi ta'kidlandi. Shuningdek, Bobur tiriklik chog'ida ko'chirilgan birgina qo'lyozma (Rampur nusxasi) ham umuman **divân** tartibida emas. Unda hatto shoirning lirik she'rlarining o'zi sanoqli.

Mazkur vaziyatda **matnshunoslikda qo'llaniladigan yana bir muhim va ilmiy tajribadan muvaffaqiyatli o'tgan ishonchli matn turi** juda qo'l keladi. Bu ham bo'lsa – **yig'ma-qiyosiy matndir**.

Yagona yig‘ma-qiyosiy matn shakllantirilar ekan **divân** tizimida muallifning barcha lirik asarlari jamlangan bo‘lishi lozim.

Matnlar aro o‘zgarishlar, farqlar va so‘zlarning turlicha kelishi yig‘ma-qiyosiy matn davomida ko‘p uchraydi. Deyarli har bir she‘r ulardan holi emas. Ular orqali esa shoirning ijodiy laboratoriyasiga matnshunoslik asosida nazar solish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu o‘z navbatida shoir lirikasini yanada teranroq tadqiq etishga omil bo‘ladi. Har bir she‘rning qo‘lyozmalardagi o‘rnini aniqlash, har sahifa osha matniy farqlarni ko‘rsatish va matnosti izohlar bilan ta‘minlash juda muhim.

Aslida hech qaysi qo‘lyozmada she‘rlar raqamlanmagan. Bu o‘rinda matn aniqligini saqlash va o‘quvchiga qo‘laylik tug‘dirish maqsadida ular raqamlanadi va to‘rtburchak [] qavsga olinadi. Yig‘ma-qiyosiy matn tuzish prinsipiga muvofiq ravishda esa **divân** uchun tayanch nusxa sifatida P va Û nuxsalar, an’anaviy mumtoz devon tuzilishi nuqtai nazardan esa L nuxsasi tanlab olinadi. Qolgan qo‘lyozmalarga esa yordamchi nusxa sifatida qaraladi. Qo‘lyozmalarning matnlar aro so‘zlar va ayrim misralar farqliligi bo‘lsa matnosti (snoska)da ko‘rsatib ketiladi. Yana bir masalaga aniqlik kiritish zarurki, matnshunoslik ilmi talabiga ko‘ra matn aslida qaysi yozuvda yaratilgan bo‘lsa ilmiy-tanqidiy matn ham, yig‘ma-qiyosiy matn ham o‘sha alifboda tuziladi.

Xulosa

Xulosa qilganda, Bobur lirikasining matniy tadqiqi yuzasidan olib borilayotgan izlanishlar uning **divân**ini eng to‘liq va sahih jamlanmasini bunyod etish yo‘lida bo‘lib, u an’anaviy mumtoz devonchilik qoidalari asosida, ishonchli qo‘lyozmalarga binoan tuzilishi va matniy saktaliklardan imkon qadar holi bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Kaynaklar

Abdug‘afurov, A. (1997). A. Abdug‘afurov. Bobur devoni qo‘lyozmasining Balamkada nusxasi. *O‘zbek tili va adabiyoti*. S. 4, s.14-20.

Abdug‘afurov, A. (1994). *Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon*. Toshkent: Fan.

Azimjonova, S. (1966). Azimjonova S. *Indiyskiy divan Babura*. Toshken: Fan.

Babur, Z. M. (1971). *Zahiriddin Muhammad Bobir. Muxtasar*. Nashrga Tayyorlovchi: S.Hasan. Toshkent: Fan.

Babur, Z. M. (2002). *Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi: S. Hasanov*. Toshkent: ShARQ.

Bobur ensiklopediyasi (2017). *Zahiriddin Muhammad Bobur Ensiklopediyasi (Qayta Ishlangan Ikkinchi Nashr)*. Toshkent: “SHARQ”.

Dennison, R. (1910). *Diwan-i Babur. With Preface*. By E. Dennison Ross. Published in Calcutta.

Hasanov, S. (1993). Zahiriddin Muhammad Bobur. *Mahrami Asror Topmadim. (Parij devoni nusxasi)* Toshkent: Yozuvchi.

Hasanov, S. (1979). Hasanov, S. O Haydarabadskom Rukopise Divana Babura. *Obshchestvennyye Nauki v Uzbekistane*. S. 12, s. 49-51.

Hasanov, S. (1982). *Bobir She'riyatidan*. Toshkent: O‘zKP Markaziy nashriyoti.

Husayn, A. (2014). *Diwan-i-Babur*. India, Rampur, Alpha Art.

Qayumov, A. (1965). *Bobir. Asarlar*. 3 Jildlik, 1-j. Devon. Toshkent: Badiiy Adabiyot.

Koprulu, M. F. (1915). Koprulu M. F. Baburshahning She`rlari. *Milli Tatabbular Macmuasi*. C. 1-2, 1331/1915.

Kurenov, R. (2016). Kurenov R.A. *Zahyreddin Muhammet Babyryn "Diwanynyn" Tekstologik Dernewi*. Filologiya Ylymlarynyn Kandidaty Alymlyk Derejesini Almak Ucin Dissertasiyanyn Awtoreferaty. Asgabat.

Juraboev, O. (2018). Juraboev, O. Boburning Nechta Devoni Bor? *Til va Adabiyot Ta'limi*. S. 2, s. 41-43.

Juraboev, O. (2020). Juraboev, O. R. Teoretical Views of Bobur About the Divan Struktire. *ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal*. Y. 10, C. 5, s. 1493-1498.

Juraboev, O. (2023). Bobur Devonining Tuzilishiga Doir Mulohazalar. *GOLDEN BRAIN*, Y. 1, S. 27, s. 171-176.

Samoylovich, A. (1917). Samoylovich A.N. *Sobranie Stixotvorenij Imperatora Babura*. Chast 1, Petrograd.

Yorqin, Sh. (1983, 2008). Yorqin Sh. *Devoni Zahiriddin Muhammad Bobur*. Kobul 1362; *Daryo dar guhar (Devoni komil Zahiriddin Muhammad Bobur)*. Kobul 1387.

Yücel, Bilal. (1995). *Babür Divanı. Gramer, Metin, Sözlük, Tıpkıbasım*. Ankara: TDK.

Etik, Beyan ve Açıklamalar

1. Etik Kurul izni ile ilgili;

Bu çalışmanın yazar/yazarları, Etik Kurul İznine gerek olmadığını beyan etmektedir.

2. Bu çalışmanın yazar/yazarları, araştırma ve yayın etiği ilkelerine uyduklarını kabul etmektedir.

3. Bu çalışmanın yazar/yazarları kullanmış oldukları resim, şekil, fotoğraf ve benzeri belgelerin kullanımında tüm sorumlulukları kabul etmektedir.

4. Bu çalışmanın benzerlik raporu bulunmaktadır.